O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MOHICHEHRA RO’ZIYEVA

# BOLALAR FOLKLORI

Bilim sohasi : 100000 - Gumanitar
Ta’lim sohasi : 110000 - Pedagogika
Ta’lim yo’nalishi: 5111700- Boshlang‘ich ta’lim

“Durdona” nashriyoti
Buxoro - 2022

**УЎК 398(075)**
**82**
**R 99**
Ro’ziyeva, Mohichehra
Bolalar folklori [Matn]:o’quv qo’llanma / M. Ro’ziyeva.-Бухара: ООО "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2022- 240 c.
**КБК 82**

Mamlakatimizda kelajak egalari-yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilib,ularning zamonaviy bilim olishi bilan birga milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizga sodiqlik ruhida kamol toptirish borasida qator milliy dasturlar ishlab chiqilmoqda, darslik va qo’llanmalar yangitdan yaratilmoqda. Shu asosda bo’lajak boshlang’ich ta’lim o’qituvchisiga xalq og’zaki ijodini, xususan, bolalar folklori namunalarini yaqindan tanitish, ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini belgilab berish muhim hisoblanadi. Natijada yo’qolib borayotgan bolalar folklori janrlarining davomiyligi ta’minlanib kelajak avlodga yetkazilishi asosida ta’lim va tarbiyaning milliy ruhda olib borilishiga erishiladi.

Binobarin, bu borada professor-o‘qituvchilar tomonidan oliygoh talabalari uchun fan dasturlariga muvofiq o‘quv qo‘llanma, darslik, o‘quv-usuliy qo‘llanmalarini tuzilishi ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

**“Bolalar folklori”** o’quv qo’llanmasi Buxoro davlat universitetining Kredit-modul tizimi asosida tahsil olayotgan 5111700 – Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bakalavrlari uchun mo’ljallangan bo’lib, tanlov fan sifatida BuxDU va Nizomiy nomidagi TDPU da ishlab chiqilgan fan dasturi (BuxDUning 2020.28.08-sanasi bilan tasdiqlanib, BD-5111700-28.08 raqami bilan, qayd etilgan) asosida yozilgan.

Unda bolalar folklori fanining nazariy asoslari, yozib olinishi, o’rganilishi va janriy xususiyatlari ko’rsatib o’tilgan. Boshlang’ich sinf darsliklarida uchraydigan bolalar folklori namunalari, ularning bola tafakkuridagi o’rni, aqliy, jismoniy, ruhiy va pedagogik ahamiyati tahlil qilingan.

***O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2022 – yil 25 – noyabrdagi “388” – sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan. Ro‘yxatga olish raqami 388 - 112***

**Taqrizchilar:** filologiya fanlari nomzodi,dots **N.O.Safarova**
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, phd **H.Ch.Nusratova**

**ISBN 978-9943-6711-9-5**

## Аннотация

В нашей стране особое внимание уделяется воспитанию подрастающего поколения - подрастающего поколения, наряду с его современным образованием, разрабатывается ряд национальных программ, направленных на развитие в духе верности нашим национальным ценностям, обычаям и традициям, обновляются учебники и пособия. Исходя из этого, будущему учителю начальных классов важно поближе познакомиться с фольклором, в частности, с детским фольклором, определить их значение в воспитании подрастающего поколения. В результате образование и воспитание в национальном духе будет достигаться на основе обеспечения преемственности жанров исчезающего детского фольклора и передачи их следующему поколению.

Поэтому создание преподавателями учебников, методических пособий, учебных пособий для студентов вузов в соответствии с учебным планом также является важной задачей в этом плане.

Учебное пособие «Детский фольклор» рассчитан для студентов-бакалавров начального образования по специальности 5111700, обучающихся на базе кредитно-модульной системы Бухарского государственного университета, на основе разработанной научной программы (утверждена Бухарским государственным университетом 29.08.2020, номер БД-5111700-28.08).

Излагаются теоретические основы, запись, изучение и жанровые особенности детского фольклора. Анализируются примеры детского фольклора, встречающиеся в учебниках начальных классов, их место в мышлении детей, их умственное, физическое, духовное и педагогическое значение.

## Annotation

In our country, special attention is paid to the upbringing of the younger generation, along with its modern education, a number of national programs are being developed aimed at developing in the spirit of loyalty to our national values, customs and traditions, textbooks and manuals are being updated. Based on this, it is important for a future primary school teacher to get to know more about folklore, in particular, with children's folklore, to determine their importance in the upbringing of the younger generation. As a result, education and upbringing in the national spirit will be achieved on the basis of ensuring the continuity of the genres of disappearing children's folklore and passing them on to the next generation.

Therefore, the creation of textbooks, teaching aids, teaching aids for university students in accordance with the curriculum by teachers is also an important task in this regard.

The textbook "Children's folklore" is designed for bachelor students of primary education in the specialty 5111700, studying on the basis of the credit-modular system of Bukhara State University, based on the developed scientific program at Bukhara State University and TSPU named after Nizami (approved by Bukhara State University on August 29, 2020, number BD - 5111700-28.08) as a selective subject.

The theoretical foundations, recording, study and genre features of children's folklore are presented. The examples of children's folklore found in primary school textbooks, their place in the thinking of children, their mental, physical, spiritual and pedagogical significance are analyzed.

The textbook is recommended for publication by the Educational and Methodological Council of  Bukhara State University.

# 1 –mavzu. Xalq og’zaki ijodi - ma’naviyat xazinasi
## (2 soat)

**Reja:**

“Folklor” termini va uning mohiyati, qo’llanilishi.

Folklorning ijodkori – xalq, jamoa.

Folklorning janrlar tarkibi va tizimi.

MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR: ajdodlar,folklor, ilg’or g’oyaviylik, mifologik, diniy tasavvur-tushunchalar, turli magik, maishiy, agrar marosimlar, anonimlik, an’anaviylik, variantlilik, o'yin, o'yin folklori, raqs, sport, musobaqa, ommaviylik, an'anaviylik, og’zakilik, ijro.

“Folklor” atamasi aslida “folk” - xalq va “lore” - donolik so’zlaridan yasalgan bo’lib, «xalq donoligi, xalq donishmandligi» ma’nolarini anglatadi. Uni birinchi marta 1846-yilda Vilyam Toms ilmiy istiloh sifatida qo’lladi. Shundan boshlab bu istiloh xalqaro miqyosda ilmiy taomilda o’zlashib ketdi. Shunga qaramay, Angliya, AQSh va boshqa ingliz tilida so’zlaShuvchi mamlakatlarda bu mavhum keng ma’noda xalq ijodining barcha sohalarini – xalq poeziyasi, xalq nasri, musiqasi, raqsi, rassomlik, o’ymakorlik, diniy e’tiqodi va odatlarini ifodalasa, boshqa tillarda so’zlashuvchi xalqlarda, asosan, so’z san’atini - xalq og’zaki poetik ijodi tushunchasini ifoda etadi. Xalq musiqasi tushunchasini ifodalashda «musiqa folklori», xalq san’atining boshqa turlarini, chunonchi, o’ymakorlik, zargarlik, zardo’zlik, kashtachilik (patdo’zlik) singarilar xalq amaliy san’ati termini ostida tushuniladi, Xalq raqsi tushunchasi xalq xoreografiyasi (grekcha choreuo – xor jo’rligida raqsga tushmoq va grapho – raqs harakatlarini maxsus belgilarda yozib olmoq) deb yuritiladi. O’zbek folklorshunosligi tarixida «folklor» istilohi nisbatan keyinroq ilmiy iste’molga kirdi. U dastlab «el adabiyoti», «og’zaki adabiyot», «og’zaki ijod» tarzida qo’llanildi. 1935-yilda H.Zarif va Sh.Rajabiylarning «O’zbek sovet folkloridan namunalar» kitobi bosilib chiqqandan keyin mazkur istilohni qo’llash taomilga kira boshladi va asta-sekin o’zbek folklori tushunchasi zamirida o’zbek xalq og’zaki poetik ijodi tushuniladigan bo’ldi. Hodi Zarifning oliy o’quv yurtlari uchun tuzgan ikki jildlik «O’zbek folklori» (1939 va 1941-y.) xrestomatiyasi nashr etilgach, u yanada barqarorlashdi.

**MOHICHEHRA RO'ZIYEVA**

# BOLALAR FOLKLORI

| | |
|---|---|
| *Muharrir:* | *G'.Murodov* |
| *Texnik muharrir:* | *G.Samieva* |
| *Musahhih:* | *A.Qalandarov* |
| *Sahifalovchi:* | *M.Ortiqova* |

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 03.12.2022 Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qogʻozi. Bosma tobogʻi 12,0. Adadi 100. Buyurtma №211.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi
"Durdona" nashriyoti: Buxoro shahri M.Iqbol koʻchasi 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Sadriddin Salim Buxoriy" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri M.Iqbol koʻchasi 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45